

"ZULFIYA - VAFO VA SADOQAT KUYCHISI"



"ZULFIYA - VAFO VA SADOQAT KUYCHISI"

Bugun Termiz davlat universitetining O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida hamda Axborot-resurs markazi bilan hamkorlikda ZULFIYAXONIM tavalludining 107 yilligi munosabati bilan "Zulfiya - vafo va sadoqat kuychisi" mavzusida adabiy kecha bolib o'tdi.

Tadbirda O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida professor - o'qituvchilari, ARM xodimlari va talabalar ishtirok etishdi. Kechani o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida mudiri, f.f.n., dots. N. Yuldashev kirish so'zi bilan ochdi. Kafedra katta o'qituvchisi PhD S. Raimova "Zulfiyaxonimning o'zbek milliy adabiyotida tutgan o'rni" mavzusida ma'ruza qildi. Talabalar shoiraning ibratli hayot yo'li haqida ma'lumotlar va she'rlaridan namunalarni o'qishdi.

Shahrimizdagi barcha ta'lim muassasalarida bu tabii tadbirlar davom etmoqda.



